

Yuridik tashkilotlardan qattiq maishiy chiqindilarni tashib chiqarish xizmatini amalga oshirish uchun tuzilgan

SHARTNOMA № 17

“01” 02. 2022 yil

G‘uzor tumani

“TOZA HUDUD” DUK G‘uzor tumani filiali keyingi o‘rinlarda, “ISH BAJARUVCHI” nomidan D. Pardaev korxonaga nizomiga asoslanib, ish yurituvchi bir tomondan va ikkinchi tomondan “SHURTAN GAZ KIMYO MAJMUASI” MCHJ keyingi o‘rinlarda “BUYURTMACHI” Bosh direktor Sh.Ch.Aslanov Jamiyat nizomiga asoslanib faoliyat yurituvchi quyidagi shartnomani imzoladilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1 Ushbu shartnoma asosida “ISH BAJARUVCHI” va “BUYURTMACHI” o‘rtasida qattiq maishiy chiqindilarni tashib chiqarish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri xo‘jalik aloqasi o‘rnatiladi.
- “BUYURTMACHI” topshirig‘iga ko‘ra “ISH BAJARUVCHI” qattiq maishiy chiqindilari tashib chiqarish va yig‘ish xizmatini majburiyatlarini oladi.
 - Xizmatlar quyidagi manzilga: G‘uzor tumani “Erkatoy – 4” MTM va Avtorargohlariga haftasiga 1 (bir) yoki 2 (ikki) marta maxsus transportda “BUYURTMACHI” hududidan (ko‘rsatilgan manzildan) olib chiqib ketiladi.
 - “BUYURTMACHI” bajarilgan ishlar natijasi haqida yo‘l varaqasiga belgi ko‘yadi.
- 1.2. Umumiy yig‘iladigan maishiy chiqindilarning yillik miqdori 123,4 m³ “ISH BAJARUVCHI”, “BUYURTMACHI” dan alohida to‘lovlar asosida qo‘shimcha xizmatlar olishga hakli emas.

2. KO‘RSATILADIGAN XIZMATLAR UCHUN HISOB-KITOB TARTIBI

- 2.1 Maishiy chiqindi tashib chiqarish tarifi 1 m³ uchun QQS bilan 40 000 sum
- 2.2 Shartnomaning yillik umumiy summasi 4 936 000 (to‘rt million to‘qqiz yuz o‘ttiz olti ming) so‘mni tashkil etadi. Tariflardagi o‘zgarish xaqida “ISH BAJARUVCHI” bu xaqida, “BUYURTMACHI” ga OAV orqali kuchga kirishidan 15 kun oldin xabar beradi.
- 2.3 “BUYURTMACHI” amalda bajarilgan ishlar uchun har chorak yakunida tuzilgan dalolatnoma asosida to‘lovni amalga oshiradi.
- 2.4 To‘lov hisoblari ta‘rif bo‘yicha harakatdagi davr olinadi.
- 2.5 Tashkilotning yuridik manzili, nomi, hisob raqami o‘zgarganda yoki maishiy chiqindi tashish hajmi o‘zgarganda tomonlar bir-birlariga bu xaqida 10 kun ichida yozma ravishda bildirishlari talab qilinadi.
- 2.6 Qattiq maishiy chikindini tashib chiqarish sifatsiz bo‘lsa, kechikishlar sodir bo‘lsa, shu davr uchun to‘lov xaqlari kamaytiriladi.
- 2.7 Xizmat ko‘rsatilmagan taqdirda yoki sifatsiz xizmat ko‘rsatilsa “BUYURTMACHI” va “ISH BAJARUVCHI” vakillari birgalikda bu haqida dalolatnoma tuzadi va imzolaydilar.
- Bu dalolatnoma to‘lov tariflarini qayta hisoblash va “ISH BAJARUVCHI”ning majburiyatlarini bajarmaganligi tufayli jarima to‘lashga asos bo‘ladi.
 - “BUYURTMACHI” ning hayoti, sog‘lig‘i va mulkiga zarar yetkazilsa bu haqda tomonlar bilan birgalikda isbotlangan zarar haqida dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma tomonlar vakillari imzo bilan tasdiqlagach, yuridik kuchga egadir.
 - “ISH BAJARUVCHI” vakili bosh tortgan taqdirda bu xaqida yozma ravishda bosh tortish sababini ko‘rsatib o‘tadi. Aks holda “BUYURTMACHI” sud qarori chiqmagunga qadar to‘lovlarni amalga oshirmaslik huquqiga egadir.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1 “ISH BAJARUVCHI” va “BUYURTMACHI” shartnoma majburiyatlariga amal qilmaganda, qonunchilikda belgilangan tartibda jarimalarni undirib olish xuquqiga egadir. “ISH BAJARUVCHI” me‘yoriy huquqiy hujjatlarga belgilangan boshqa huquqlarga ham ega.
- 3.2 “ISH BAJARUVCHI” majburiyatlari
- Maishiy chiqindilarni tashib chiqarishni tashkil etish.
 - Shartnomada ko‘rsatilgan, qonunchilikda belgilangan talablar asosida, “BUYURTMACHI”ning qattiq maishiy chiqindilarni tashib chiqarish sifatini ta‘minlash.
 - “BUYURTMACHI” ko‘rsatma hamda topshiriqlarini shartnoma va qonunchilikda belgilangan muddatda bajarish.
 - Ko‘rsatilgan xizmatlar va o‘z vaqtida hisob kitoblarni nazorat qilish uchun elektron to‘lov tizimini joriy etish.
 - Ko‘rsatilgan hujjatlar vaqti va sifatini nazorat qiluvchi “BUYURTMACHI”ning shikoyatlari hisobga olish kitobini yuritish.
 - “BUYURTMACHI” arizasiga ko‘ra binolarning buzilish natijasida xosil bulgan qurilish chiqindilarini, agrotexnik xizmatlar (daraxtlarni kesishdagi chiqindilar) uchun alohida avtotransport vositasi ajratish;
 - Chiqindi saqlash punktlari, konteynerlar holati yuzasidan doimiy nazorat o‘rnatish;
 - “BUYURTMACHI” arizasiga ko‘ra chiqindilarni to‘plash uchun kerakli miqdorda konteynerlar bilan ta‘minlash: Inson xayotiga zarar yetkazuvchi, bakteriyalarni ko‘paytiruvchi, tabiatga ziyon keltiruvchi chiqindilarni to‘planib kolishiga yo‘l qo‘ymaslik.
 - To‘planib qolgan chiqindilar xisobini olib borish.
 - Xizmat ko‘rsatish tartibi va tariflar o‘zgarganda “BUYURTMACHI” ga “ISH BAJARUVCHI” tomonidan 15 kun oldin xabar beradi.
 - “BUYURTMACHI” ga xizmat ko‘rsatishning sifati buzilmasligini oldini olish choralirini ishlab chiqish;
 - Xizmatlar xaqida, qarzdorlik xaqida bepul ma‘lumot yoki xabar berish;
 - Konteynerlar San Q va M (O‘zbekiston Respublikasi San Q va M №0297-11) talablari darajasida dizenfeksiya qilish;

3.3 "BUYURTMACHI" huquqlari.

- Hayotiga va sog'lig'iga xavf solmaydigan va mulkiga zarar yetkazmaydigan sifatli xizmatlarni qabul qilishda:
- "ISH BAJARUVCHI" aybi bilan sodir etilgan xizmatdagi kamchiliklar uchun jarima talab qilish;
 - Xizmat ko'rsatish tartiblari va tariflari o'zgarganligi xaqida "ISH BAJARUVCHI"dan to'liq ma'lumotlar olish, elektron to'lov tizimi, qilingan ishlar haqida ma'lumotlar olish;
 - "ISH BAJARUVCHI" tomonidan sifatsiz amalga oshirilgan xizmatlar uchun sudga shikoyat kiritish;
 - Shartnomaga asosan ma'yoriy-xuquqiy xujjatlar orqali boshqa xuquqlarga ega:

3.3. "BUYURTMACHI"ning majburiyatlari.

- Shartnoma shartlarini bajarish;
- Qattiq maishiy chiqindi omborida qurilish chiqindilari bilan maishiy chiqindilarni aralashtirib yubormaslik va ularni keng gabaritli avtotransport vositalarida boshqa shartnoma orqali chiqarib ketish;
- Chiqindi to'plash joylarini butun saqlash, tungi yoritgich asboblari bilan jihozlash, maxsus transport vositasi harakatlanishi uchun qo'lay shart sharoit yaratish.
- _____ telefon orqali "ISH BAJARUVCHI"ni qattik va maishiy chiqindi chiqarish jadvali o'zgarganda yoki buzilganda xabardor etish na nazorat qilish;
- "ISH BAJARUVCHI" tomonidan bajarilgan ishlar hajmini imzo va muhr bilan tasdiqlab berish.
- Har chorak yakunida bajarilgan xizmatlar xaqida dalolatnomalar tuzish;
- Har chorak yakunida amalda bajarilgan xizmatlar uchun tasdiqlangan dalolatnoma asosida to'lovlarni amalga oshirish:

4. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI TO'LIQ BAJARILMAGANDA TOMONLARNING JAVOBGARLIGI:

4.1 "BUYURTMACHI" javobgarligi:

- Shartnoma majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun;
 - Qattiq maishiy chiqindi tashib chiqarish xizmatlari uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirmaganda;
 - Shartnomada ko'rsatilgan tartibda qattiq maishiy chiqindi to'dalanib qolishda:
- 4.1.1 To'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganda "BUYURTMACHI" "ISH BAJARUVCHI"ga to'lanmay qolgan summaning har kuniga 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq xizmat haqining 50% dan oshmagan miqdorda.

4.2 "ISH BAJARUVCHI" javobgarligi.

- Qattiq maishiy chiqindi tashib chiqarish vaqtini buzganda va aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmagandagi jarima to'lovini paysalga solganda;
 - Foydalanayotgan chiqindi to'plash joylarining va konteynerlar texnik holatiga:
- 4.2.1 Xizmatlar ko'rsatganda "ISH BAJARUVCHI" "BUYURTMACHI"ga xizmat haqining 0,5% miqdorida har bir o'tkazib yuborilgan kuni uchun penya to'laydi. Penya to'lovi "ISH BAJARUVCHI"ni shartnoma majburiyatlarini bajarishidan ozod etmaydi.

5. SHARTNOMANING KORRUPSIYAGA QARSHI QISMI

- 5.1. Jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirish (legallashtirish) va terrorizmni moliyalashtirishning xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan korrupsiyaga va ushbu huquqbuzarlikka qarshi kurashish qonun hujjatlariga ko'ra davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'z o'zini boshqarish organi xodimining pora olishi, tijoratda pora olish yoki pora berishda ishtirok etish kabi harakatlarni rad etish, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etadilar, kafolatlashda o'zlari, shu jumladan xodimlar, afillangan shaxslar, benefitsiarlar va biznes sheriklar, vositachilar, pudratchilar, pudratchilar yoki Shartnomani bajarishda ishtirok etadigan agentlar ushbu qonunga zid ravishda harakat qilmasligini ta'minlaydilar;
- 5.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoillariga zid bo'lgan maqsadlarda ularga ta'sir o'tkazuvchi har-qanday shaxslar, tomonlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxs orqali takliflar, va'dalar berish, tovlamachilik, so'rovlar, pul boshqa qimmatbaho buyumlar, mol-mulk, huquqi yoki boshqa moddiy yoki nomoddiy foydalarni olishda, asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishishda rozilik berishdan voz kechadilar;
- 5.3. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish choralari ko'rishni kafolatlaydilar. Tomonlar qonun buzilishiga oid gumonlarning paydo bo'lishi yoki Shartnoma doirasida ular tomonidan jalb qilingan Tomonlar, xodimlar, foyda oluvchilar, kaffillangan shaxslar yoki boshqa shaxslar tomonidan buzilish ehtimoli borligi to'g'risida (shu jumladan korporativ elektron pochta bilan foydalangan holda) bir-birlarini yozma ravishda ochiq va darhol xabardor qilish majburiyatini oladilar;

Shuningdek, agar tomonlardan biri asoslangan holda yoki shubha ostidagi boshqa tomon, uning xodimlari, benefitsiarlari, sheriklari yoki Shartnomani bajarishda ishtirok etadigan boshqa shaxslar tomonidan amaldagi qonunlarning va/yoki ushbu Shartnomaning korrupsiyaga qarshiqoidalari buzilgan bo'lsa, ushbu tomon unga yozma

ravishda so'rov yuborishga haqlidir. Talabnoma kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida qonun buzilish faktini rad qiluvchi yoki tasdiqlovchi izohlar va ma'lumotlar/hujjatlarni taqdim etish talabi bilan murojaat etish huquqiga ega.

5.4. Tomonlar, agar tomonlardan biri ushbu bob talablarini bajarmagan bo'lsa, shuningdek boshqa tomon buzilish sodir bo'lmaganligini yoki sodir bo'lmaganligi to'g'risida tasdiq olmagan bo'lsa va tomon korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirgan bo'lsa, boshqa tomon ushbu Bitimni bir tomonlama bekor qilish, shuningdek uning bajarilishini to'xtatib turish huquqiga ega.

5.5. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilishni tomon tomonidan yekazilgan zararni qoplash ushbu Shartnomaning tegishli moddasida belgilangan tartibda amalga oshiradi, shu bilan birga ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon Shartnomani belgilangan bir tomonlama bekor qilish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas.

5.6. Agar kelishuv bo'yicha tomon Kompaniya xodimlarining hatti-harakatlariga, ushbu shartnomaga va/yoki amaldagi qonunchilikka, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarnisodir etishga majburlash faktlariga duch kelsa, tomonlar bu haqda korrupciyaga qarshi qoidalarga zidbo'lganligi to'g'risida quyidagi aloqa kanallaridan biri tomonidan xabar berishi shart

- +99875 552-42-54 raqamli "Ishonch telefoniga" og'zaki murojaat qilish;
- Jamiyatning rasmiy veb-sayti orqali sgcc.uz;
- Jamiyatning pochta manziliga yuborilgan yozma murojaat orqali.

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Ushbu shartnoma "31" dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sohaga doir o'zgarishlar bo'lganda, tomonlar kelishuv orqali o'zgartirish va ko'shimchalar kiritish mumkin.

6.4. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va bir xil kuchga egadir.

7. NIZOLARNI HAL QILISH

7.1. Tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, nizolar Iqtisodiy sud orqali belgilangan tartibda xal qilinadi.

TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

"BUYURTMACHI"

"SHURTAN GAZ KIMYO MAJMUASI" MCHJ

Manzil: G'uzor tumani Sho'rtan qo'rg'oni

h/r: 202100001040390010001

STIR: 203195074

Bank nomi: Milliy bank Qarshi filiali

MFO: 00150

Tel: (75) 226-02-27; faks: (75) 552-40-16

Bosh direktor Sh.Ch.Aslanov

"ISH BAJARUVCHI"

"TOZA XUDUD" DUK G'uzor tuman filiali

Manzili: G'uzor tumani Mustaqillik ko'chasi №21 uy

h/r: 22604000300783206002

STIR: 304937508

ATB "Ipoteka" bank viloyat filiali OKED: 35210

MFO: 00190

Tel: +998 91-166-65-69

Filial rahbari D.Pardaev

Huquqiy xulosa: Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurutuvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi tug'risida"gi qonun talablariga va fuqarolik kodeksi moddalariga mos kelishini aniqladim. Ushbu shartnomani taraflar tomonidan imzolash mumkin deb hisoblayman.

Huquqshunos:



Александр Владимирович Бозов
Александр Владимирович Бозов О.Р.